YANGI O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR

Rayimkulov Akmal Akbaraliyevich - Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bosh mutaxassisi
e-mail: akmalrayimqulov99@gmail.com

Annotatsiya: Ayni damda Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda kelajagimizning asosiy omili bo‘lgan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni e’tiborsiz qoldirishning imkoni mavjud emas. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi pallaga chiqgan.

Kalit so‘zlar: Harakatlar strategiyasi, konsepsiya, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, maktab, oliy ta’lim.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo‘lib, jamoa bo‘lib shakllanadi. Ayni o‘sha paytda ularni o‘zlari o‘rgangan muhitdan ajratib qo‘ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta’lim-tarbiyasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bois ta’lim jarayonining usluksizligini ta’minlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarur”.

Barchamizga ma’lumki, ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tashkil etuvchilarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida tuzilgan yagona dinamik tizimni tashkil etadi. Dinamik tizim deyishiga sabab, ta’limni va ta’lim jarayonini tashkil etuvchilari jamiyat taraqqiyotiga mos holda muntazam rivojlanishda bo‘lib, takomillashtirilib boriladi.

Bunda tashkil etuvchilar quyidagilardir: maqsad; mazmun; shakl, usul, uslub, o‘qituvchi shaxsi, talabalardagi dastlabki bilim, o‘qitishning moddiy – texnik bazasi va shu kabilar. Bu ta’lim jarayonlarini bir butunlikda, ya’ni yagona yaxlit dinamik tizim sifatida qarash lozimligini taqozo etadi va bunday qarash ta’lim jarayonini boshqarish va boshqarishning optimal variantini topishga ham imkoniyat yaratadi. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

to‘g‘risida”gi Farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, ta’lim tizimini takomilashtirish, o‘quv adabiyotlari bilan sifatli ta’minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash shuningdek, amaldagi ta’lim tizimini isloh qilish va ilgg‘or xorijiy tajribaga mos ravishda ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha bir qancha o‘zgarishlar bo‘ldi.

Jumladan, ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soladigan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinib, mazkur qonun 2020-yilning 23-sentabr kunidan kuchga kirdi. Ushbu qonunda ta’lim tizimining yettita bosqichi belgilab berildi. Mazkur qonun bilan pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari belgilab qo‘yildi. Xususan, pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinishi, pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanashi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilishi, shuningdek o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar berilishi nazarda tutildi. 2023-yilning 1-mayidan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasida esa pedagoglarning maqomi alohida e’tirof etilgan.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, 2017-yilda mamlakatimizda 77 ta oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2023/2024 o‘quv yilida 209 ta oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritgan. Jumladan, xorijiy OTM va uning filiallari 30 taga yetgan bo‘lsa, nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni 65 taga yetkazildi. Bundan tashqari, 24 ta oliy ta’lim muassasalari filiallari ham tashkil etildi. Aholi fikrini o‘rgangan holda, sirtqi va kechki ta’lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Professor-o‘qituvchilarning xorijdagi oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini ta’minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori 2018 yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobar oshirildi.

Yangi O‘zbekistonda maktab ta’limida ham jahon tajribasi asosida chuqur islohotlar o‘tkazildi. Maktab darsliklari bosqichma-bosqich tarzda yangilanib borildi. O‘zbekistonda umumta’lim maktablari soni so‘nggi 5 yilda 660 taga ko‘paydi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2019-2021 yillarda 14 ta maxsus maktablar tashkil etildi. 2023/2024 o‘quv yili boshida esa 10750 ta umumta’lim maktablari faoliyat yuritgan.

Ta’lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta’lim tizimining quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey

oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo‘ldi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo‘lini tutgan barcha mamlakatlarda e’tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, etakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg‘unlantirishga qaratganligi bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog‘liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ni amalga oshirish, “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko‘plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e’tiborning amaliy ifodasi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-oktabr 2020-yildagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiynazariy asoslari // pedagogika fanlari dokt.diss. Toshkent. 2021. – 204.

4. Toshtemirova S.A.Klasterli yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirish // pedagogika fanlari bo‘yicha fals.dokt.diss. Toshkent. 2021. – 198

5. Kayumov, B. I., Qosimova, M. (2022). Ta’lim mazmunini mantiqiy o’zlashtirishda blok–modul darsining roli. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 139-145.

6. Осечкина Л.И. Кластерный подход как условие повышения эффиктивности деятельности вуза / Л.И.Осечкина // Высшее образование в России. -2012. -№8-9. – С.75